Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ona tili ta'limi bu jarayonning asosi hisoblanadi, chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki shaxs tafakkuri, dunyoqarashi va ma'naviy olamini shakllantiruvchi asosiy omildir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kreativ tafakkur shaxsning yangicha fikrlashga moyilligi, muammoni noodatiy hal qilish qobiliyati, original g'oya va fikrlarni ilgari surish salohiyati sifatida talqin etiladi. Ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarga erkin fikrlash,



matnni qayta tuzish, davom ettirish, muqobil yakun yaratish, o'z matnini mustaqil yozish kabi topshiriqlarning berilishi ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ona tili darslarida matn ustida ishlashning metodik imkoniyatlarini chuqur o'rganish va takomillashtirish bugungi kun ta'limi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Ona tili darslarida o'quvchilar bilan matn ustida ishlash ularning til bilimi (sezgirliigi), mantiqiy tafakkuri, nutqiy faoliyati hamda ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Matn – bu tilning real namoyon bo'lish shakli bo'lib, o'quvchilarda til birliklarining mazmunini tushunish, tahlil qilish va yangi g'oyalar yaratish imkonini beradi. So'nggi yillarda o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'qituvchilar salohiyatini oshirish masalasi davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son¹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, hamda boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligi alohida belgilab qo'yilgan. Ularda, ayniqsa, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sifatini yaxshilash, shuningdek, kreativlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa zamonaviy ta'limning 4K ko'nikmalari asosida bilim berish zaruriyatini taqozo etadi. Ushbu strategiya doirasida yosh avlodni raqamli ta'lim va innovatsion yondashuvlar orqali tayyorlash ko'zda tutilgan bo'lib, bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish masalasi nafaqat metodik, balki psixologik-pedagogik jihatdan ham chuqur ilmiy asosga ega. Bu borada dunyo olimlari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, L. Vygotsky, J. Piaget, J. Bruner, D. Graves, L. Calkins, G. Wells va P. Elbow ijodiy yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda matn bilan ishlashning psixologik, pedagogik va metodik asoslarini atroflicha tahlil qilganlar.

Shuningdek, G. Barton, M. Khosronejad, M. Ryan va boshqa tadqiqotchilar ham mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mazkur masala O'zbekiston olimlari tomonidan ham atroflicha o'rganilgan. D. Rahimboyeva, N. Ortiqova, R. Bakayeva, Sh. Buronova, G. O'rinboyeva va boshqalar matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, grammatik bilimlarni mustahkamlash bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda hayotiy tajribaga asoslangan holda mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Jumladan, 8-sinf o'quvchilarida ona tili darslarida matn ustida ishlash usullari kreativ tafakkurni rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki matn tahlili orqali o'quvchilar yangi ma'nolar yaratish, tasavvur qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Xususan, ona tili darslarida matn asosida kreativ fikrlashni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ona tili darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy metodikasini yoritish ham dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy manbalarda "kreativlik" tushunchasi turlicha izohlangan. Ba'zi tadqiqotchilar uni yangi g'oya yaratish qobiliyati sifatida ta'riflasalar, boshqalar uni muammolarni noodatiy yo'l bilan hal qilish ko'nikmasi sifatida ko'rsatadilar. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida ushbu tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl (1989) ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajadagi noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra, kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshiriqlari, masalalar va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda, bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashning birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi yagona to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

¹ <https://lex.uz/docs/5013007>



Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “kreativlik” – bu shaxsning yangi g’oyalar yaratishga tayyorligi, mustaqil va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyati bo’lib, uning iqtidorlilik xususiyatlarini tashkil etuvchi asosiy element sifatida namoyon bo’ladi. Pannels va Klakstonlar (2008) o’quvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda o’qituvchining markaziy rolini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o’qituvchi auditoriyada kreativlik muhitini yaratish orqali talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishga hissa qo’shadi. Shu bilan birga, Pirtoning (2004) fikricha, kreativlik tavakkal qilishni va o’z g’oyalari bilan tajriba o’tkazishni talab qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ona tili darslarida o’qituvchi sinfda shunday muhit yaratishi kerakki, o’quvchilar o’zlarini erkin his etib, fikr va g’oyalarni bemaolol ifoda eta olsinlar. Kreativlik muhiti mavjud bo’lgan sinfda o’quvchilar turli usullar orqali o’z qarashlarini sinab ko’rish va namoyon qilish imkoniga ega bo’ladilar, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o’qituvchi faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki o’quvchilarning ijodiy salohiyatini shakllantiruvchi fasilitator sifatida faol bo’lishi muhimdir. J.P. Guilford (1950) tomonidan ilgari surilgan kreativlik nazariyasi divergent fikrlash tushunchasi orqali izohlanadi. U intellekt faoliyatini ikki asosiy fikrlash turiga ajratadi: konvergent va divergent fikrlash.

Konvergent fikrlash ma’lum muammo uchun yagona to’g’ri javobni topishga qaratilgan bo’lib, u an’anaviy test va baholash tizimlarida keng qo’llaniladi. Divergent fikrlash esa bir muammo doirasida bir nechta yechim, yangi g’oya va noodatiy yondashuvlarni yaratish bilan tavsiflanadi (Guilford, 1950). Umuman olganda, ona tili fanini o’qitishda maqsad faqat grammatik me’yorlarga rioya qilish emas, balki o’quvchilarni mustaqil, erkin va ijodiy fikr ifodalashga o’rgatishdir. Guilfordning divergent fikrlash konsepsiyasi ona tili darslarida o’quvchilarga turli fikr va yondashuvlarni sinab ko’rish, o’z ijodiy g’oyalarni ifodalash imkonini berishda muhim vosita hisoblanadi. Shu tariqa, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni faol, mustaqil fikrlashga yo’naltirish ona tili fanining nazariy hamda amaliy jihatlarini uyg’unlashtiradi. Ona tili darslarida kreativ tafakkurni rivojlantirish – bu o’quvchilarning fanga oid materiallar asosida ijodiy fikrlashini shakllantirish, ularni mustaqil va erkin ifodaga o’rgatish jarayonidir. Mazkur tadqiqotda kreativ tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida matnlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli savollar va interfaol metodlardan foydalanish ko’zda tutiladi. Pedagogik jarayonda kreativ tafakkurni rivojlantirish, avvalo, o’quvchilarning ta’lim faoliyatiga bo’lgan munosabatini o’zgartirishni talab etadi. An’anaviy reproduktiv yondashuvdan farqli ravishda, ona tili darslarida o’quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etish, uning shaxsiy tajribasi va qiziqishlariga tayangan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o’quvchi bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni izlaydi, tahlil qiladi va ijodiy qayta ishlaydi. Ona tili darslarida kreativ tafakkurni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri matn ustida ishlash hisoblanadi. Matn asosida tashkil etilgan muammoli savollar, ijodiy topshiriqlar, ochiq vaziyatlar o’quvchilarning tafakkurini faollashtirib, ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi. Masalan, matn mazmunini o’zgartirish, muqobil yakunlar yaratish, qahramonlar faoliyatiga ijodiy baho berish kabi topshiriqlar o’quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va kreativ yondashuvni shakllantiradi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlarning o’rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, “Brainstorming” (g’oyalar hujumi), “Rolga kirish”, “Klaster”, “INSERT”, “Muammoli vaziyat”, “Sinkveyn”, “Blum kubigi”, “Blum romashkasi” kabi metodlar o’quvchilarning fikrlar xilma-xilligini qo’llab-quvvatlab, ularni erkin fikr bildirishga undaydi. Bunday metodlar orqali o’quvchilar nafaqat o’z fikrini ilgari suradilar, balki boshqalarning fikrini tinglash, taqqoslash va baholash ko’nikmalarini ham rivojlantiradilar. Ona tili darslarida kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratish ham muhim omillardan biridir. O’quvchilarning xato qilishdan qo’rqmasligi, o’z fikrini erkin ifoda etishi va ijodiy tashabbus ko’rsatishi uchun dars jarayonida qo’llab-quvvatlovchi hamda hamkorlikka asoslangan muhit zarur. O’qituvchining rag’batlantiruvchi munosabati va ochiq muloqoti kreativ tafakkurning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Baholash jarayonida ham kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo’naltirilgan yondashuv muhim hisoblanadi. Faqatgina to’g’ri javobni emas, balki o’quvchining fikrlash jarayoni, yangicha yondashuvi hamda original g’oyalarni e’tiborga olish ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu esa o’quvchilarning ijodiy faolligini rag’batlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o’quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik materiallar tizimli ravishda to’plandi va saralandi. Didaktik materiallarni to’plashda o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi, ta’lim maqsadlariga xizmat qilishi hamda kreativ fikrlashni rag’batlantirishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Didaktik materiallar quyidagi yo’nalishlarda shakllantirildi:

- badiiy va ilmiy-ommabop matnlar – o’quvchilarning tasavvurini boyituvchi, fikrlashga undovchi, hayotiy va muammoli vaziyatlarni aks ettiruvchi matnlar tanlab olindi, ushbu matnlar o’quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash hamda xulosa chiqarish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi;



- ijodiy topshiriqlar – matnni davom ettirish, matn asosida yangi va o'zgacha yakun tuzish, qahramonlarga tavsif berish, matn mazmuni asosida dialog yoki monolog yaratish kabi topshiriqlar ishlab chiqildi, ushbu topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlashini rag'batlantirdi;
- muammoli savollar va vaziyatlar – matn mazmuni asosida “Agar... bo'lganda edi”, “Siz qahramon o'rnida bo'lsangiz, nima qilardingiz?” kabi savollar orqali o'quvchilarning kreativ yondashuvi shakllantirildi;
- interfaol metodlar asosidagi materiallar – “Sinkveyn”, “Klaster”, “Insert”, “B-B-B”, “Rolga kirish” kabi metodlar asosida tayyorlangan topshiriqlar dars jarayoniga tatbiq etildi.

Didaktik materiallarni to'plash va sinovdan o'tkazish jarayonida ularning samaradorligi amaliy mashg'ulotlar orqali tekshirildi, natijada o'quvchilarning matnni chuqur anglash, mustaqil fikr bildirish hamda ijodiy yondashuv ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. O'quvchilarga quyidagi matnli topshiriqlar berildi:


1. O'quvchilarga matnning boshi, ya'ni kirish qismi berilib, uning davomini yozish vazifasi qo'yildi. Topshiriq. Tabiatni asrash – har birimizning burchimiz. Tabiat bizning uyimizdir. Daraxtlar, o'simliklar, hayvonlar, qushlar va toza havo hayotimizning ajralmas qismidir. Ammo oxirgi yillarda inson faoliyati natijasida tabiatga katta zarar yetmoqda. O'rmonlarning kesilishi, daryolarning ifloslanishi hamda hayvonlarning yo'qolib ketishi bu muammolarning ayrimlaridir.
2. O'quvchilarga muayyan mavzuga oid tayanch so'z va iboralar tavsiya etildi hamda fikrlarini ular bilan mantiqiy aloqadorlikda shakllantirish talab qilindi. O'quvchilarda matn tuzish bilan bog'liq muayyan ma'lumot to'plangach, topshiriqni jamoaviy yoki individual bajarish vazifasi qo'yildi. Topshiriq. Muvaffaqiyatli bo'lish uchun mening uchta qoidam. Muvaffaqiyatga erishish, uchta asosiy qoidam, aniq maqsad qo'yish va reja tuzish, doimiy o'rganish va rivojlanish, ishonch va qat'iyat – bularning barchasi muvaffaqiyat qozonishimga yordam beradi, muvaffaqiyat kalitidir.
3. Keyingi topshiriqda matnning so'nggi, ya'ni xulosa qismi berildi. Bunda o'quvchi mavzuni ochib berishda kirish va asosiy qismlarni yozgan holda yaxlit matn yaratadi. Topshiriq. Do'st tanlash – muhim qaror.

Xulosa qilib aytganda, do'stlik ikki tomonlama munosabatdir. Faqatgina yaxshi do'st topishga intilmasdan, o'zingiz ham yaxshi do'st bo'lishga harakat qilishingiz kerak. Do'stingizga sadoqatli bo'ling, unga yordam bering hamda uning ishonchini qadrlang. Maktab o'quvchilari uchun matn tuzishda zamonaviy va ijodiy yondashuvni talab qiladigan mavzular ularning qiziqishlarini uyg'otadi, fikrlash doirasini kengaytiradi hamda ijodkorlikni rivojlantiradi. Ular: tabiat va atrof-muhit, texnologiya va kelajak, oila va jamiyat, ijodiy va fantastik yo'nalishlar, shaxsiy rivojlanish va motivatsiya, madaniyat va san'at, innovatsion g'oyalar kabi mavzulardir. Berilgan topshiriqlar bajarilgandan so'ng baholash mezonlari asosida baholash amalga oshirildi.

1-jadval: O'quvchilarni baholash mezonlari

Kategoriya	O'quvchilar bilimni baholash mezonlari
1-kategoriya	Mazmun va mavzuga mosligi
2-kategoriya	Matn tuzilishi va mantiqligi
3-kategoriya	Til birliklari uslubiyati
4-kategoriya	Grammatik to'g'rilik
5-kategoriya	Punktuatsiya va orfografiya
6-kategoriya	Ijodiylik
7-kategoriya	Husniyat

Ushbu jadval o'quvchilarning yozma ishlarini baholash mezonlarini ko'rsatadi. Unda matnning mazmuni, tuzilishi, til va grammatik to'g'riligi, ijodiylik hamda husnixati asosida baholash tizimi belgilangan. Tajriba-sinov ishlarini olib borish maqsadida o'rta ta'lim maktabining 8-“A” va 8-“B” sinflari tanlab olindi. Nazorat sinflarida o'qitish jarayoni an'anaviy metod asosida amalga oshirilgan bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida “Ona tili” fanini o'qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalangan holda darslar tashkil etildi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba boshida hamda tajriba oxirida olingan natijalari muntazam tahlil etib borildi va ular bir-biriga qiyoslanib, xulosa qilindi. Tajriba-sinov guruhida “Ona tili” fanini o'qitishda ikki bosqichda 2024-2025-o'quv yilida matnga asoslangan ijodiy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi nazariy asoslanib, amaliy jihatdan isbotlab berildi. Natijalarni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



1-rasm: O'quvchilarning matn bilan ishlash natijalari

Rasm natijalariga ko'ra, 2025-2026 o'quv yilida barcha 7 ta kategoriya bo'yicha ko'rsatkichlar oshgan. Eng sezilarli o'sish 3-kategoriya kuzatildi. Umuman, natijalar ijodiy yondashuv samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida ona tili darslarida matn ustida ishlashning o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Amaliy mashg'ulotlar davomida matnni tahlil qilish, mazmunini qayta ifodalash, muqobil yakun yaratish, savol tuzish, ijodiy davom ettirish kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvur doirasining kengayishi hamda nutq faoliyatining faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, matn bilan ijodiy ishlashga jalb qilingan o'quvchilar oddiy savol-javoblarga nisbatan ko'proq mustaqil fikr bildirishga intildilar. Ayniqsa, matnga muqobil yakun topish, qahramonlar xarakterini o'zgartirib tasavvur qilish hamda voqealarga yangi nuqtai nazardan yondashish topshiriqlari o'quvchilarda kreativ fikrlash elementlarini kuchaytirgani kuzatildi.

Shuningdek, darslarda interfaol yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligi va qiziqishini oshirdi. Guruh va juftlikda olib borilgan matn tahlillari o'quvchilar orasida fikr almashish madaniyatini rivojlantirdi hamda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qildi. Tajriba davomida o'quvchilarning lug'at boyligi, erkin yozish ko'nikmalari va mantiqiy bog'langan fikr bildirish darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ona tili darslarida matn ustida tizimli va ijodiy ishlash o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki kreativ tafakkurini ham rivojlantiradi. Matn asosidagi ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilar yangi g'oyalar ilgari surish, muammoga noodatiy yechim topish hamda o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, matn bilan ishlashni kreativ yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy ta'lim jarayonida samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ona tili darslarida matn ustida tizimli va maqsadli ishlash o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Tajriba-sinov jarayonida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli savollar hamda interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy bayon qilish va original g'oya ilgari surish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Nazorat va tajriba sinflari natijalarini qiyosiy tahlil qilish ijodiy yondashuv asosida olib borilgan darslarda o'quvchilarning matnni anglash darajasi, nutqiy faolligi va ijodkorlik ko'rsatkichlarida ijobiy o'sish kuzatilganini tasdiqladi. Shuningdek, matnni davom ettirish, muqobil yakun yaratish va tayanch so'zlar asosida matn tuzish kabi topshiriqlar o'quvchilarda kreativ fikrlash elementlarini shakllantirishga xizmat qildi. Demak, ona tili darslarida matn ustida ishlashni interfaol va ijodiy metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning til kompetensiyasi bilan bir qatorda ularning kreativ tafakkurini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida to'plangan materiallar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning kreativ tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari baholandi. Har bir matn asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar hamda ijodiy topshiriqlar ishlab chiqildi. Natijada dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan didaktik materiallar banki shakllantirildi. Shu bilan birga, didaktik materiallarni tanlashda ularning o'quvchilarni faollikka undashi, nutqiy faoliyatni rivojlantirishi hamda ijodiy fikr bildirishga imkon yaratishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Bunday yondashuv matn ustida ishlash jarayonini faqat reproduktiv emas, balki ijodiy faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>
2. Azzam, A. (2009). Why Creativity Now? Educational Leadership, 67(1), 22–26.
3. Amabile, T. M. (1989). Growing Up Creative: Nurturing a Lifetime of Creativity. Buffalo, NY: Creative Education Foundation.
4. Bruner, J. (1986). Actual Minds, Possible Worlds. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Calkins, L. (1994). The Art of Teaching Writing. Portsmouth, NH: Heinemann.
6. Elbow, P. (1998). Writing Without Teachers. New York: Oxford University Press.
7. Gardner, H. (1993). Creating Minds. New York: Basic Books.
8. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.
9. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
10. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Oxford: Capstone Publishing.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
12. Rahimboyeva, D. Q. (2023). Ona tili ta'limida matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar.
13. Ortiqova, N. E. (2024). Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish usullari. Tadqiqotlar.uz.
14. Bakayeva, R. I. (2023). Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali funksional savodxonlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.
15. Buranova, Sh. M., O'rinboyeva, G. (2025). Ona tili darslarida matn ustida ishlash imkoniyatlari (8-sinf ona tili darslarida). – B. 171–172.
16. Yulbarsov, O., Yakubova, M., Ibragimov, B., Nurimov, G., Bobokhujaeva, L., Ganijonova, N. (2025, June). Medical Terminology Extraction Using Hybrid Approach for Uzbek Texts. In 2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM) (pp. 2230–2234). IEEE.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.